

TOG'AY MUROD ASARLARIDA MILLIYLIK VA INSON RUHIYATINING BADIY IFODASI

Shaxnoza Baxriddinova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakili Tog'ay Murod ijodida milliylik va inson ruhiyatining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Yozuvchining asarlaridagi milliy o'zlik, xalqona tafakkur, ona zamin va inson birligi, xalq tili ilmiy-nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Tog'ay Murod ijodining o'zbek milliy adabiyotidagi o'rni ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Tog'ay Murod, milliylik, inson ruhiyati, o'zbek nasri, xalqona til, milliy qadriyat, badiiy ifoda, xalqona tafakkur, milliy obraz.

Annotation: This article analyzes the artistic expression of national identity and the spirit of the people in the works of Togay Murod, one of the prominent figures of Uzbek literature. The study examines the portrayal of national consciousness, folk thinking, the unity of man and native land, the people's language, and spiritual richness from a scientific and theoretical perspective. The article also highlights the significance of Togay Murod's creative legacy in Uzbek national literature.

Keywords: Togay Murad, nationality, folk spirit, Uzbek prose, folk language, national values, artistic expression, folk thinking, national image.

Аннотация: В данной статье анализируется художественное отражение национальности и народного духа в творчестве одного из крупнейших представителей узбекской литературы — Тогая Мурода. Рассматриваются национальное самосознание, народное мышление, единство человека и родной земли, язык народа, а также средства выражения духовного богатства в его произведениях с научно-теоретической точки зрения. Кроме того, освещается место творчества Тогая Мурода в узбекской национальной литературе.

Ключевые слова: Тогая Мурод, национальность, народный дух, узбекская проза, народный язык, национальные ценности, художественное выражение, народное мышление, национальный образ.

Milliy adabiyot har bir xalqning ma'naviy qiyofasini ifoda etuvchi eng muhim hodisalardan biridir. O'zbek adabiyotida inson ruhiyatini, milliy o'zlikni, insonning tug'ma ezigulikka intilishini badiiy obrazlar orqali ifodalagan yozuvchilar orasida Tog'ay Murod alohida o'ringa ega. Uning asarlari xalqning dard-u quvonchlarini, orzu-umidlarini, mehnatkash insonning hayotiy kechinmalarini samimiy tarzda aks ettiradi. Shu bois Tog'ay Murod ijodi o'zbek xalqining ma'naviy dunyosini, milliy ruhiyatini, o'zligining go'zal qirralarini chuqur ifodalagan bebaho merosdir.

Tog'ay Murod (1948–2001) o'zbek nasrining eng sermazmun va milliy ruhga to'la yozuvchilaridan biridir. Uning “Otamdan qolgan dalalar”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi”, “Yulduzlar mangu yonadi” kabi asarlari o'zbek xalqining milliy hayoti, urf-odatlarini, or-nomusini, mehnatga sadoqati bilan yo'g'rilgan. Yozuvchining asarlarida xalqning hayoti, ota-onaga hurmat, halollik, sadoqat, sabr-toqat kabi qadriyatlar markaziy o'rinni egallaydi. U o'z asarlarida xalq tafakkurini chuqur anglab, uni badiiy shaklga keltira olgan ijodkordir.

Tog'ay Murod asarlaridagi milliylik – bu nafaqat xalq hayotining tasviri, balki inson ruhiyatining badiiy ifodasidir. Masalan, “Otamdan qolgan dalalar” qissasida yozuvchi dehqon mehnati orqali millatning hayot falsafasini ochadi. Asarda ijtimoiy ruh — pafos keng ko'lam kasb etadi. Roman markazida Dehqonqul taqdiri turadi. Asar voqealari hayoti, taqdir-qismati, ruhiy dunyosi, ona-yer, kindik qoni to'kilgan muqaddas tuproq bilan mustahkam bog'liq. Asar voqealari bosh qahramon Dehqonqul tilidan so'zlab beriladi. Unda milliylik faqat tashqi belgilar orqali emas, balki xalqning ichki dunyosi, ruhiyati, orzu-armoni orqali ko'rsatiladi. Asarda bosh qahramon Dehqonqul o'zbek xalqining timsoli sifatida tasvirlangan. Asarda uch avlod vakillari Jaloliddin Ketmon, uning o'g'li Aqrab va uning farzandi Dehqonqul obrazi orqali o'zbek xalqi hayotining fojiali qirralarini yoritib berilgan. Bolalikdan qullik, zulmga ko'nikkan, hayotni faqat mehnatdan iborat deb bilgan Dehqonqul uchun dalalari va paxtasi muhim. Uning uchun dalalarining yaxshi saqlanishi, mo'l hosil berishigina saodat. Dehqonqul shu tashvishlar bilan band bo'lib oilasiga, farzandlariga ham e'tibor bermaydi. Markazdan keluvchi mehmonlarga atab bozor qiladi, biroq bolalariga kelganda kambag'alligiga ko'nadi. Siyosatdan yiroq bo'lgan bo'lsa-da, asar yakunida „Paxta ishi“ sababli qamaladi. Shuncha yil qul bo'lib yashagan Dehqonqulning ko'zi shunda ochiladi. Hayotidagi barcha fojialarni ana o'shanda anglaydi. Shu bois, bu asar o'zbek xalqining ruhini eng tabiiy va badiiy tarzda aks ettirgan durdona asarlardan biri hisoblanadi.

Yozuvchi milliylikni oddiy so'zlar, xalqona hikmatlar, obrazlar orqali beradi. Uning har bir jumlasini xalq hayoti bilan bog'liq. Milliylikni sun'iy emas, tabiiy holatda ifodalash – Tog'ay Murod uslubining eng muhim belgilaridan biridir. Tog'ay Murod inson ruhiyatini samimiy, hayotiy va chuqur falsafiy mazmunda tasvirlaydi. Uning asarlaridagi qahramonlar xalqning o'zi: mehnatkash, sodda, ammo dono. “Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” asarida yozuvchi hayot, o'lim, taqdir, insoniylik haqida xalqona fikrlar bilan to'la falsafiy ruh yaratadi. Qahramonlar hayotda qanchalik og'ir sinovlarga duch kelmasin, “bu dunyoda o'lib bo'lmaydi” degan qat'iy fikr bilan yashaydilar. Bu o'zbek xalqining bardoshli, sabr-toqatli yashashga intiluvchi ruhini aks ettiradi. Inson ruhiyatining badiiy ifodasi asarlarda tildan tortib, qahramonlarning ruhiy kechinmalarigacha seziladi. Ular kulgida ham, dardda ham xalqona ohangni saqlaydi. Bu orqali yozuvchi xalqning ruhiy dunyosini, sabr va bardoshini, hayotga bo'lgan mehrini ko'rsatadi.

Togʻay Murod tili – bu xalq tili. Uning asarlarida maqollar, iboralar, xalq hikmatlari, dialoglar tabiiy jaranglaydi. “Oydinda yurgan odamlar” asarida yozuvchi xalqona ifoda vositalari orqali insonning ichki dunyosini ochadi. Qahramonlarning tili orqali milliy xarakter, xalq tafakkuri, xalqona kulgu va kinoya namoyon boʻladi. Shuning uchun Togʻay Murod asarlarini oʻqigan oʻquvchi xalq ovozi, xalq ruhiyatini his qiladi.

Togʻay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asari ham oʻzbek xalqining milliy ruhiyatini, oʻzligini, hayotga boʻlgan qarashlarini chuqur badiiy ifoda etgan eng taʼsirli qissalaridan biridir. Asarda xalqning tarixiy xotirasi, hayot falsafasi, sabr-toqati, ornomusi va insoniy qadriyati oʻziga xos tarzda aks etadi. Asar voqealari, ajib his tuygʻular, haqiqiy yigitning ori, nomusi, chin muhabbati, qolaversa doʻstlik va xiyonat va eng asosiysi Surxon vohasining eng goʻzal urf odatlari haqida hikoya qiladi. Unda ota va oʻgʻil, yoshlikning begʻubor va oʻrni kelganda hayotning ogʻriqli nuqtalari haqida hikoya qiladi. Asar oʻzbek xalqining milliylik anʼanalarini tarannum etuvchi asarlar sirasiga kiradi. Undagi har bir jumla muallifning naqadar soʻz ustasi ekanligi, kitobxonni borgan sari oʻziga tortishi bilan ajralib turadi. Yana shuni ham taʼkidlash kerakki, voqealar rivoji, obrazlilik asar mohiyatini, yanada qiziqarililigini ochib beradi. Bu esa, muallif istedodi va soʻz boyligiga borib taqaladi. Oʻz ishining ustasi boʻlgan, mohir ijodkor Togʻay Murod takrorlanmas iqtidor sohibi edi deb baralla aytish mumkin. Sababi u asarlarida boshqa asarlarga nisbatan milliylik ruhiyatini oʻta kuchli ichki iroda bilan tuza olgan.

Togʻay Murod oʻz ijodi bilan oʻzbek nasrini yangi badiiy bosqichga olib chiqdi. U xalq hayotini romantik emas, balki hayotiy realizm ruhida koʻrsatdi. Yozuvchi xalqning oʻzini – mehnatkash dehqon, oddiy inson, ona va bola timsollarida koʻrsatib, ularni badiiy qahramon darajasiga koʻtardi. Uning asarlarida milliylik va inson ruhiyatining uygʻunligi oʻzbek adabiyoti uchun yangi nafas, yangi ifoda vositalarini olib kirdi. Shu sababli Togʻay Murod ijodi oʻzbek adabiyotining xalqchilik va milliylik tamoyillarini mustahkamladi.

Xulosa qilib aytganda, Togʻay Murod oʻz asarlari orqali oʻzbek xalqining ruhiy olamini, milliy oʻzlikni, ona yurtga muhabbatni, mehnatga sadoqatni badiiy ifodalagan ijodkordir. Uning nasrida xalq tili, xalqona tafakkur va milliy qadriyatlar uygʻunlashgan. Togʻay Murod asarlari milliy adabiyotimizda inson ruhiyatining chinakam ifodasi sifatida oʻz oʻrniga ega boʻlib, bugungi avlodni ham milliy qadriyatlarga sodiq boʻlishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Togʻay Murod. Otamdan qolgan dalalar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot, 1990.
2. Togʻay Murod. Oydinda yurgan odamlar. – Toshkent, 1994.
3. Qosimov B. Zamonaviy oʻzbek nasri. – Toshkent: Fan, 2005.
4. Rahimov N. Milliy ruh va badiiyat. – Toshkent, 2010.
5. Oʻzbekiston adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2016.
6. Toʻxliyev B. Nasriniz yoʻli va maqsadi. – Toshkent: Yozuvchi, 2001.